

## **DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF STUDENTS OF MILITARY EDUCATION ON THE BASIS OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES**

**Egamberdiyev Ilhomjon Yigitaliyevich**

Teacher of Military Education Faculty of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

**Annotation:** Today, the prestige and position of any country on the world stage is measured by its military and economic potential, as well as the level of public awareness of information and communication systems. Therefore, today it is important to systematically transfer knowledge about modern technologies and information communications in all areas, including pre-service military education. In this article, the author discusses in detail the reforms and analysis of the development of professional competencies of students of pre-service military education on the basis of information and communication technologies.

**Keywords:** Pre-Service Military Training, Communications, Army, Armed Forces, Cabinet Decision, Etc

## **CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

**Egamberdiyev Ilhomjon Yigitaliyevich**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Harbiy ta'lif fakulteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Bugun dunyo sahnida har bir davlatning obro' va mavqeyi uning harbiy-iqtisodiy salohiyati, shuningdek aholining axborot kommunikatsiya tizimlaridan xabardorlik darajasi bilan o'lchanadi. Shu boisdan bugun barcha sohalarda, shu o'rinda Chaqiriqqacha harbiy ta'lif yo'nalishida ham zamonaviy texnologiyalar va axborot kommunikatsiyalari haqidagi bilimlarni tizimli berib boorish dolzARB masala kasb etadi. Ushbu maqolada muallif Chaqiriqqacha harbiy ta'lif yo'nalishi talabalarining axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish borasidagi islohotlar va tahlillar haqida batafsil to'xtalib o'tadi.

**Kalit so'zlar:** chaqiriqqa qadar harbiy tayyorlash, kommunikatsiyalar, armiya, Qurolli kuchlar, Vazirlar Mahkamasi qarori va h.k.

Armiyamizning bo'lg'usi askar va ofitserlarini chaqiriqqacha bo'lgan davrda tayyorlashning o'rnini va ahamiyatini, ularning mazkur mashaqqatli kasbni tanlashga ongli yondashishi naqadar muhim ekanini bugun alohida ta'kidlab o'tirishning hojati yo'q, albatta. Ta'lif jarayoniga yangi axborot – kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimedia vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida kasb-xunar kollejlari litsey va oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lif muassassalarining o'quv- labaratoriya bazasini zamonaviy turidagi o'quv va labaratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylar mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha samarali tizimni yanada rivojlantirishdan iborat. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari raqamli va keng formatli telikommunikatsiya aloqa vositalari hamda internet tizimini yanada rivojlantirish, ularni har bir oila hayotiga joriy etish va keng o'zlashtirish bugungi kundagi eng dolzarb mavzulardan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlarida olib borilayotgan islohotlami davom ettirib, davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev: «Ko'zlangan strategik maqsadlarga yetishishda va ulami hayotga to'liq tatbiq etishda har tomonlama va puxta tayyorlangan, o'z Vataniga sodiq, yuksak tajribali harbiy kadrlami tarbiyalash, davlat tomonidan ulaming ijtimoiy himoyasini kafolatlash hal qiluvchi va asosiy omildir. Shu bois respublikanining hamma o'quv muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi to'g'risidagi fanlami tatbiq qilish va kuchaytirish

bo'yicha amaliy ishlardan boschlandi» deya ta'kidlab o'tdi. Yoshlaiga harbiy ta'lim berishda ularga qo'shinchilarning o'quv-jangovar faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallami harbiy qismlardagiga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatish nazarda tutiladi. Bu mashqlami ko'p marotaba takroriash natijasida yoshlarda zamriy harbiy bilim va ko'nikma yuzaga keladi. Tinchlik va harbiy davrda aholi va hududlami favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini amalgalash oshirish, me'yoriy-huquqiy hujjalami ishlab chiqish va amalga oshirish; respublika hududidagi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni prognozlashtirish, ulaming ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash; favqulodda vaziyatlaming oldini olishga, odamlar xavfsizligini ta'minlashga, xavfli texnologiyalar va ishlab chiqarishlaming tavakkalchilagini pasaytirishga, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining barqarorligini oshirishga qaratilgan maqsadli va kompleks ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish; boshqaruva organlari va favqulodda vaziyatlaming oldini olish, ularni bartaraf etish uchun mo'ljallangan kuch va vositalaming doimiy tayyorligini ta'minlash; aholi va hududlami favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotlami yig'ish, ishlab chiqish, ayirboshlash va berish; aholini, boshqaruva organlarining mansabdar shaxslarini, FYDT kuchlari va vositalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash; favqulodda vaziyatlami bartaraf etish uchun moddiy resurslar zaxiralarini yaratish; aholi va hududlami favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshimvini amalgalash oshirish; favqulodda vaziyatlami bartaraf etish harbiy sohaning birlamchi vazifalaridan biridir.

Armiya davlat mexanizmlaridan biri bo'lib, ko'p tomonlama davlatning taqdirini, ichki barqarorligini, hozirgi zamondagi o'rni va rolini belgilaydi. Qurolli Kuchlar davlat hududiy yaxlitligini va uning fuqorolarini tinch hayotini ta'minlaydi. Harbiy sohadagi islohatlar shart-sharoitlarida Qurolli Kuchlar yangi sifat kasb etmoqda. Armiyamizda tuzilmaviy o'zgarishlar o'tkazilib, harbiy doktrina mudofaa yo'nalishiga va uning rivojlanishi sifat va aqliy ustuvorliklar asosida shakllantirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan bugun har bir Vatanimiz jangchisidan aniq ish, yuksak vatanparvarlik tuyg'usi, o'zining jangchilik burchini vijdonan bajarishini va shaxsiy ma'suliyat talab etiladi. Jangovar shaylikni yuqori darajada ushlab turish, jangchilik mahoratni takomillashtirish, tartib va intizomni mustahkamlash har bir askarning mamlakat mudofaa qudratini ta'minlashdagi ulushi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari oldidagi yuksak va ma'suliyatli vazifalarni sog'lom, jismonan baquvvat va chidamli, aqlan shakllangan, yuksak ma'naviy-jangovar sifatlarga ega, Vatan himoyasi yo'lida vatanparvarlik va fuqaroviylar burchini bajarishga tayyor kishigina uddalay oladi. Armiya sharoitida askarning jismoniy, aqliy va ma'naviy sifatlarini harbiy xizmat jarayonida samarali qo'llay olishida ko'p jihatdan chaqiruvga qadar va chaqiriq yoshidagi o'smirlarni tayyorgarligining samaradorligiga bog'liq. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek «YOsh avlodni el-yurtga, vatanga sadoqatli, iyomon-e'tiqodli, mard va jasur, yuqori malakali ma'naviyati yuksak insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim o'chog'larining aloxida o'rni bor».

O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining aynan ushbu yo'nalishdagi "O'zbekiston respublikasi yoshlarini harbiy xizmatga tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" qarori quyidagilarni o'z ichiga oladi. Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda xalqimiz tarixiga va ma'naviy qadriyatlariga yuksak hurmat tuyg'usini shakllantirish, Vatan himoyasiga, uning milliy xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va suverenitetini ta'minlashga doimo shay turishga hamda harbiy xizmatni o'tashga tayyorlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalgalash oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi:

- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan kelishgan holda mazkur qarorga muvofiq, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani rahbar va o'qituvchilarlavozimlariga oliy ma'lumotli, kasbiy jihatdan yaxshi tayyorlangan, shuningdek, yuqori tajriba va malakaga ega bo'lgan pedagog kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rsin;
  - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda umumta'lim maktablaridagi mavjud chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikka oid o'quv-moddiy bazani o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini balansiga topshirish va qabul qilib olish ishlarni amalgalash oshirsin.
3. Manfaatdor vazirlilik, idora va tashkilotlar o'zlarining normativ-huquqiy hujjalarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikning asosiy yo‘nalishlari o‘sib kelayotgan avlodni jismoniy, ma’naviy-axloqiy, vatanparvarlik va davlat mudofaasi hamda mehnatiga shay holda turish ruvida tarbiyalashga qaratilgan. Chaqiruvga qadar yoshlarni tayyorlashning asosiy vazifalari boshlang‘ich harbiy bilimlar, jismoniy tayyorgarlik, o‘z Vatanining harbiy tarixini, ramzlarini o‘rganish, jangchi va vatanparvar fuqaroni shakkantirishni qamrab oladi. «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi» kursining vazifasi yoshlarga ta’lim jarayonida quydagilarni o‘rgatishdan iborat:

- O‘zining konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini anglash, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini, Vatan himoyasi haqida va uni qurolli tajovuzdan himoya qilish haqida bilish;
- O‘zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasining mudofaaga qaratilganligini;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa qo‘shinlarning vazifalarini;
- O‘zbekiston Respublikasi «Mudofaa haqida» «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonunlarni, O‘zbekiston Ruspublikasi Vazirlar Maxkamasining «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xizmatini tashkillash to‘g‘risida»gi qarorini, «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga kiritish va chiqarish, harbiy jinoyat sodir etganligi uchun va harbiy xizmatdan bosh tortganligi uchun jinoiy hamda ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida»gi asosiy qoidalarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Nizomlari va harbiy qasamyodning asosiy talablarini o‘rganishni va anglashni;
- harbiy qismning qurol va harbiy texnikasi, shaxsiy tarkibning turmush tarzi va joylashuvi bilan tanishishni;
- harbiy ish asoslari, zaruriy harbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, shuningdek jismoniy chiniqish va ruhan hamda ma’nab mustahkam bo‘lishni;
- fuqarolar muhofazasi va tibbiy bilim asoslarini o‘zlashtirishni;

Yoshlarni Chaqiruvga qadar tayyorlash jarayoni yoshlar harbiy xizmatni o‘tashda o‘zining konstitutsiyaviy burchini a’lo darajada bajarilishini va o‘ziga topshirilgan zamonaviy jangovar qurol va harbiy texnikani qisqa muddatda o‘zlashtirib olishini ta’minalashdan iborat. Yoshlarga harbiy ta’lim berishda ularga harbiy qismlarning jangovar o‘quv-faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallarni harbiy qismlardagi qo‘shinlarning jangovar o‘quv faoliyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o‘rgatish ko‘zda tutiladi. Yoshlarning chaqiriqqacha tayyorgarligiga umumiy rahbarlik va nazorat O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga va Mudofaa Vazirining harbiy ta’lim boshqarmasiga yuklatilgan. Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlikning nazorati O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining Birlashgan shtabi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi, «Vatanparvar» tashkilotining Markaziy kengashi va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralarning rejalarini asosida olib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, shuni alohida ta’kidlashimiz kerakki, bugungi kunda axborot kommunikatsiyalari kirib bormagan soha har jihatdan oqsayotgan soha demakdir. Shu jumladan harbiy sohada ham bu masala ustuvor sanaladi. Chaqiriqqacha qadar yoshlarni harbiy tayyorlash jarayonida, talabalarga axborot kommunikatsiya texnologiyalar bo‘yicha ta’lim-tarbiya berish, ularda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini oshirish va zamonaviy kommunikatsiyalardan foydalangan holda harbiy islohotlarni amalga oshirish kabi maqsadlarni o‘z oldimizga ustuvor qilib qo‘yamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vatan himoyasi — muqaddas burch. — T., «O‘zbekiston», 2001.
2. Armiya davlat tayanchi, tinchhk kafolati. — T., Mudofaa vazirligi, 2004.
3. H.Jo ‘rayev. Chaqiriqqacha yoshlami tayyorlash. — T., «Sharq», 2004.
4. Tinglovchilar uchun fuqaro muhofazasi masalalari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirhgi fuqaro muhofazasi instituti. — T., 2008.
5. <https://lex.uz/acts/-2523455?ONDATE=22.12.2014%2000>
6. <https://mudofaa.uz/uz/17955/>